

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 3777,8 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 57,8 ming kishiga yoki 1,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1407,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,3 %), qishloq aholisi soni 2370,1 ming kishini (62,7 %) tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **57,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **71,9 ming nafami** tashkil etdi.
- **11,4 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **19,7 mingta nikoh** va **2,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Samarqand viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi)

	2017 yil	2018 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Viloyat</b>	<b>3701,3</b>	<b>3777,8</b>	<b>102,1</b>
Samarqand sh.	528,0	536,1	101,5
Kattaqo'rg'on sh.	86,6	87,8	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	152,0	154,7	101,8
Bulung'ur	178,0	181,9	102,2
Jomboy	162,0	166,3	102,7
Ishtixon	240,7	246,0	102,2
Kattaqo'rg'on	260,3	265,5	102,0
Qo'shrabot	124,8	127,5	102,2
Narpay	204,2	207,7	101,7
Payariq	237,4	242,8	102,3
Pastdarg'om	337,0	344,3	102,2
Paxtachi	137,9	140,7	102,0
Samarqand	240,1	244,8	102,0
Nurobod	143,1	146,0	102,0
Urgut	478,5	490,9	102,6
Tayloq	190,7	194,8	102,1

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida 536,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %) va Urgut tumanida 490,9 ming kishini (13,0 %), aksincha eng kam aholi soni Kattaqo'rg'on shahrida 87,8 ming kishi (2,3 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Jomboy tumanida 2,7 foizni, Urgut tumanida 2,6% foizni, Payariq tumanida 2,3 , tashkil etdi.

## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 71,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,7 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,9 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 23,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Kattaqo'rg'on shahrida (22,4 promilledan 25,3 promillega), Ishtixon (24,9 promilledan 27,8 promillega), Bulung'ur (24,5 promilledan 27,2 promillega) va Payariq (28,1 promilledan 30,6 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgani kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Tuman va shaharlar bo'yicha tug'ilganlar soni yanvar-sentyabr (*kishi*)

	2017 yil		2018 yil	
	(kishi)	1000 aholiga nisbatan (promille)	(kishi)	1000 aholiga nisbatan (promille)
<b>Viloyat</b>	<b>65 502</b>	<b>23,8</b>	<b>71 937</b>	<b>25,7</b>
Samarqand sh.	7 236	18,4	8 007	20,1
Kattaqo'rg'on sh.	1 444	22,4	1 653	25,3
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	2 665	23,6	2 803	24,4
Bulung'ur	3 244	24,5	3 664	27,2
Jomboy	3 277	27,3	3 501	28,4
Ishtixon	4 450	24,9	5 081	27,8
Kattaqo'rg'on	4 475	23,2	4 797	24,3
Qo'shrabot	2 453	26,5	2 672	28,3
Narpay	3 153	20,8	3 338	21,6
Payariq	4 948	28,1	5 514	30,6
Pastdarg'om	5 766	23,0	6 404	25,1
Paxtachi	2 569	25,0	2 785	26,7
Samarqand	4 131	23,2	4 371	24,0
Nurobod	2 629	24,7	2 791	25,7
Urgut	9 821	27,7	10 962	30,1
Tayloq	3 241	22,9	3 594	24,9

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 11,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bulung'ur tumanida (4,0 promilledan 4,5 promillega), o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Samarqand shahrida (5,3 promilledan 4,7 promillega), Pastdarg'om tumanida (4,1 promilledan 3,4 promillega), Qo'shrabot (4,6 promilledan 4,1 promillega) va Payariq (4,7 promilledan 4,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
6,2 ming  
kishi

**Ayollar:**  
5,2 ming  
kishi

### Tumanlar va shaharlar bo'yicha o'lganlar soni yanvar-sentyabr (kishi)


	2017 yil		2018 yil	
	(kishi)	1000 aholiga nisbatan (promille)	(kishi)	1000 aholiga nisbatan (promille)
<b>Viloyat</b>	<b>11 809</b>	<b>4,3</b>	<b>11 379</b>	<b>4,1</b>
Samarqand sh.	2 073	5,3	1 883	4,7
Kattaqo'rg'on sh.	348	5,4	341	5,2
tumanlar:				
Oqdaryo	472	4,2	453	3,9
Bulung'ur	533	4,0	610	4,5
Jomboy	520	4,3	506	4,1
Ishtixon	660	3,7	690	3,8
Kattaqo'rg'on	674	3,5	696	3,5
Qo'shrabot	428	4,6	389	4,1
Narpay	616	4,1	574	3,7
Payariq	830	4,7	767	4,3
Pastdarg'om	1 025	4,1	877	3,4
Paxtachi	493	4,8	486	4,7
Samarqand	878	4,9	828	4,6
Nurobod	432	4,1	452	4,2
Urgut	1 300	3,7	1 282	3,5
Tayloq	527	3,7	545	3,8

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,0 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,6 % o'simtalardan, 6,4 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,9 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,1 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 % yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 14,6 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 494 nafarni tashkil etib, ularning 70,4 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 12,3 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,1 % tug'ma anomaliyalardan, 3,4 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,8 % yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 3,0 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



### 2018 yil yanvar-sentyabr

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 60,5 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 6,8 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 53,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Tabiiy o'sish:  
60,5 ming kishi

## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti

(2018 yil yanvar-sentyabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 19,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan kamayish Bulung'ur va Qo'shrabot tumanlarida (2,7 %), Paxtachi tumanida (2,5 %), Pastdarg'om (2,4 %) va Payariq (2,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda, aksincha o'sish esa deyarli sezilmadi.


### Nikohdan ajralishlar.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 2,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati Payariq (0,3 %) va Nurobod (0,1 %), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti

(2018 yil yanvar-sentyabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 12,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,8 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida esa minus 4,1 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-sentyabr	2018 yil yanvar-sentyabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	7,7	9,3
<b>Ko'chib ketganlar</b>	11,8	12,1
<b>Migratsiya saldosi</b>	-4,1	-2,8



*Samarqand viloyat statistika boshqarmsi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul:*

**T.Ermatov**  
(66) 235-72-35